



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

TA'LIM JARAYONIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHDA KASBIY MOTIVATSIYANING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Tajiboyev Asqat Alisher o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti, I-bosqich tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini oshirish masalasi va bu boradagi xorijiy tajribalar tahlil qilingan. Singapur, Finlandiya va Yaponiya ta'lim tizimlarida o'qituvchilarni rag'batlantirish, kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda pedagogik hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar yoritib berilgan. Shuningdek, pedagogik ta'lim jarayonida talabalarda ichki motivatsiyani shakllantirish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratishning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy motivatsiya, bo'lajak pedagoglar, pedagogik kompetensiya, ta'lim tizimi, xorijiy tajriba, pedagogik hamkorlik, motiv, motivatsiya tushunchalari, kasbiy motivatsiya, kasbiy identifikatsiya, ruhiy charchoq (burnout), shaxsiy qiziqishlar, ehtiyojlari va qadriyatlar, ichki va tashqi omillar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Таджибоев Асгат Алишер угли

Джизакский государственный педагогический университет, базовый докторант I курса

Аннотация

В данной статье анализируется вопрос повышения профессиональной мотивации будущих учителей и рассматривается зарубежный опыт в этой области. Подчеркиваются подходы к мотивации учителей, поддержке их профессионального развития и развитию педагогического сотрудничества в образовательных системах Сингапура, Финляндии и Японии. Также обосновывается важность формирования внутренней мотивации у учащихся, развития профессиональных компетенций и создания благоприятной учебной среды в процессе педагогического образования.

Ключевые слова: Профессиональная мотивация, будущие учителя, педагогическая компетентность, система образования, зарубежный опыт, педагогическое сотрудничество, мотивация, концепции мотивации, профессиональная мотивация, профессиональная идентификация, психическое выгорание (синдром выгорания), личные интересы, потребности и ценности, внутренние и внешние факторы.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL MOTIVATION IN INCREASING THE EFFECTIVENESS OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Tajiboyev Asqat Alisher o'g'li

Jizzakh State Pedagogical University, 1st-Year Doctoral Researcher

Abstract

This article analyzes the issue of increasing the professional motivation of future teachers and foreign experiences in this regard. The approaches to motivating teachers, supporting their professional development, and developing pedagogical cooperation in the educational systems of Singapore, Finland, and Japan are highlighted. The importance of forming internal motivation in

students, developing professional competencies, and creating a supportive learning environment in the process of pedagogical education is also substantiated.

Keywords: professional motivation, future teachers, pedagogical competence, education system, foreign experience, pedagogical cooperation, motive, concepts of motivation, professional motivation, professional identification, mental fatigue (burnout), personal interests, needs and values, internal and external factors.

Har bir davlat yuksalishida ta'lim tizimi muhim poydevori hisoblanib, rivojlanishning muhim omili sifatida inson kapitali ko'rsatkichini oshiradi, innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Mamlakatimiz jahon ta'lim standartlariga mos ta'lim tizimini yaratishda intellektual salohiyatli, o'zgarishlarga tayyor, kreativ fikrlaydigan sifatli pedagog kadrlar jamiyat rivojining barcha sohalarida unumdorligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida bir qator amaliy ishlar va chora tadbirlar keng miqyosda olib borilmoqda. Xususan, "gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta'lim maktablariga xorijiy tillarni o'zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish" [1] kabi vazifalar oliy ta'lim tizimini isloh qilishda muhim dasturilamal sifatida xizmat qilmoqda.

Ta'lim jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarga bevosita bo'lajak pedagoglarning kasbiy motivatsiyasi bilan aloqadorligi sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Kasbiy motivatsiya- bu bo'lajak pedagogning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli egallashi, ushbu kasbda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishi, professional darajasini oshirishga turtki beruvchi ichki va tashqi psixologik omillar tizimidir. Ta'lim jarayonida aynan motivatsiya kasb haqidagi muayyan tasavvurlar shakllanganligi, bilimni chuqur egallaganligi, kasbiy faoliyatini anglashni va kompetensiyaga aylanish darajasini belgilaydi. Shu bois kasbiy motivatsiyaning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish pedagogning kasbiy o'sishi va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Kasbiy rivojlanish istagida bo'lgan yosh mutaxassisning pedagogik motivatsion sohasi nafaqat o'z kasbiga qiziqishi, tanlagan kasbidan qoniqish tuyg'usi, o'zidagi qobiliyatlarni samarali namoyon qilish istagi balki o'z kasbiy faoliyatidagi adaptatsiya darajasi ham kasbiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, bo'lajak o'qituvchilarda shakllanayotgan motivatsiyalangan faoliyati uning pedagogik kasbiy samaradorligini oshiruvchi va boyituvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Motivatsiyaning tarkibiy qismlariga kasbiy identifikatsiya, faoliyat motivlari(qiziqish, ehtiyojlar), individual faoliyat uslubi va kasbiy qadriyatlari majmuasini kiritish mumkin. Aksariyat hollarda talabalarda amaliy kompetensiyalarning yetarli darajada shakllanmaganligi ichki (intrinsik) motivatsiyaning pasayishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat bo'lg'usi pedagoglar va yosh mutaxassislarda o'z kasbiga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi va o'z ustida muntazam ravishda kasbiy mahoratini oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Hozirgi paytda talabalarda kasbiga nisbatan noto'g'ri motivatsiya shakllanishi, o'z kasbining ustasi emas balki, ma'lum diplomga ega bo'lish, fanlarni yuzaki o'zlashtirish, nazariy bilimlarini real kasbiy faoliyat bilan uzviy olib bormasligi kasbiy so'nishni yuzaga keltirmoqda. Talaba egallayotgan kasbining mazmun mohiyatini anglamas ekan, unda motivatsiya ham shunchalik beqaror va cheklangan bo'ladi.

Motivatsiya tushunchasini o'rganishgan rus olimlaridan L.S. Vigotskiy, S. L. Rubinshteyn, A. N. Leontyev, E. P. Ilyin, V. I. Kovalev, V. S. Merlin, P. M. Jakobson va boshqa xorijiy olimlar A. Adler, J. Atkinson, K. Levin, A. Maslou asarlarida keng qamrovli aks ettirilgan. Psixologiya motivatsiya tushunchasining turli jihatlarini yoritib bergan. Ushbu olimlar yondashuvidagi asosiy umumiylik shundaki, motivatsiya inson xatti-harakatlari boshqarishga undagi ichki va tashqi omillar manbai ta'sir etishini alohida ta'kidlagan. Psixologiyada motivatsiyani o'rganishda asosiy vazifa inson faoliyatining harakatlantiruvchi parametrlarini tahlil qilishdir. Masalan, Lev Vigotskiy motivatsiyani shaxsning psixik rivojlanishida ijtimoiy muhit, madaniy omillar va ta'limning ta'siri bilan bog'liq holda ekanligi tushuntirilgan. U motivatsiyani shunchaki insondagi biologik ehtiyoj sifatida emas, balki ijtimoiy muhit va madaniy vositalar orqali shakllanadigan murakkab jarayon deb hisoblagan. Inson ijtimoiy mavjudot ekanligi, u jamiyat bilan o'zaro ta'sirsiz insoniyat rivojlanishi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni o'zida alohida shakllantira olmasligini ta'kidlagan. Uning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasiga ko'ra, o'qituvchi aynan shu zonalar orqali bolalar rivojlanishiga ta'sir etishi mumkin. L.S. Vigotskiy ta'kidlashicha ta'limning yetakchi roli shuni ko'rsatadiki, motivatsiyani shakllantirish uchun bolaga berilayotgan bilimlarning murakkablik darajasi bola va kattalarning hamkorlikdagi faoliyatida amalga oshishi hamda topshiriqlarni uning me'yoriy yoshga bog'liq rivojlanish darajasiga moslash lozim. Ijtimoiy muhit bolada individual rivojlanish manbayi sifatida namoyon bo'lib, muhitda qo'llab-quvvatlash bola shaxsining potensial imkoniyatlari darajasini aniqlashga yordam beradi. Bu jarayon motivatsiyaning kuchayishiga olib keladi. Motivatsiyaning eng yuqori darajasi yaqin rivojlanish chegarasida bola kattalar ishtiroki ostida bajara oladigan, lekin hali mustaqil ravishda hal qilolmaydigan topshiriqlar bilan ishlaganda paydo bo'ladi.

A.N. Leontev xulq-atvor va motiv o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini ta'kidlab, dastlab, u buni monomotivatsion nuqtai nazardan yondashgan, ya'ni har bir faoliyatda o'z motivi mavjud deb hisoblangan. Har xil turdagi dominantlik qilayotgan motivlarga ega bo'lgan shaxslar orasida ularning faoliyatida muvaffaqiyatning turli farqlari mavjudligini ta'kidlaydi. Boshqacha qilib aytganda, motivning ma'lum bir turi o'ziga xos sabablarga ko'ra, tashqi omillar ta'sirida tanlangan maqsadga (bu muvaffaqiyatning asosiy ko'rsatkichlaridan biri) erishish jarayonida ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, insondagi qobiliyatlar, shaxsiy xislatlar va asab tizimining xususiyatlari kabi omillar bir xil faoliyatda insonlar faoliyatida muvaffaqiyatga turlicha erishishiga hissa qo'shishini ta'kidlaydi. Insonning motivatsion soha doimiy dinamik o'zgarishda bo'lib, ma'lum vaqt mobaynida motivlar ierarxiyasi asosida o'zgarishini keltirib o'tadi. A.N. Leontev ehtiyojning o'zi insondagi xatti-harakatlarni rag'batlantira olmasligini; u bazan yo'naltirilmagan faoliyatga undashi mumkinligini ta'kidlaydi. U faoliyat jarayonida to'liq motivatsiya bo'lishi uchun ikkita omilga ehtiyoj sezadi: ehtiyoj va motivga-deya hisoblagan.

S. Merlin motivlarni tasniflashda ularni ikki guruhga ajratadi: birinchisi guruh odamlar va hayvonlarga aloqador bo'lgan motivlarni o'z ichiga olsa; ikkinchi guruh esa, asosan, inson motivlarini o'z ichiga oladi. B.I. Dodonov mashhur asarida tahlil qilishicha, har qanday faoliyatning sabablariga mehnat emas, balki to'rtta omillar guruhining kombinatsiyasi ekanligini izohlaydi. Ular

1. faoliyatni bajarish jarayonidan zavqlanish;
2. faoliyat natijasidan zavqlanish;
3. faoliyat uchun qandaydir mukofot olish;
4. jazodan qochish istagi.[2]

S.L. Rubinshteyn faoliyatni shaxsning psixik xususiyatlarini shakllantiruvchi jarayon sifatida ko'rsatadi va shaxs faqat faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi, deb ta'kidlaydi. [3] Umuman olganda o'z kasbidan qoniqishni his qilgan, kasbiga nisbatan qiziqish va ijodiy munosabatda yondashadigan har bir pedagogda ichki motivatsiya mustahkam bo'ladi. Motivatsiya o'qituvchining o'z kasbiga nisbatan qiziqishini oshiradi va u muntazam ravishda o'z mahoratini

takomillashtirib borishga intiladi. Darhaqiqat motivatsiya termini insonda ma'lum faoliyati davomida ichki harakatlantiruvchi kuch sifatida yuzaga keluvchi psixologiya fanida o'rganilishi dolzarb bo'lgan nazariy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Motivatsiya tushunchasi insonning ehtiyojlari va maqsadlari, qadriyatlar, qiziqishlariga bog'liq holda uning xatti-harakatini boshlashi, davom ettirishi va to'xtatishi belgilab beradi. Bu inson faoliyatini ma'lum maqsad asosida yo'naltiradigan va unga muntazam ravishda ushbu faoliyaga undovchi murakkab psixologik tizimdir.

Shaxs motivatsiyasini tushunishda Abraham Maslouning "Motivatsiya va shaxsiyat" (1970) asari inson ehtiyojlari ierarxiyasi (piramidasi) va o'z-o'zini anglash (self-actualization) nazariyasi muhim fundamental asos hisoblanadi. Masalan, Abraham Maslou nazariyasiga ko'ra, insonning xatti-harakatlari faqat biologik omillar jihatidan emas, balki psixologik va ijtimoiy omillar asosida boshqarilishini ta'kidlaydi. Insonni oddiy fiziologik ehtiyojlaridan tortib, eng yuqori ehtiyoj o'zini o'zi ro'yobga chiqarish ehtiyoji shaxs rivojida muhim omil hisoblanadi.

Ta'lim jarayoni faqat shaxsga bilim beribgina qolmay o'z imkoniyatlarini namoyon qilishiga sharoit yarata olsa, kasbiy motivatsiya ichki manbaga ega bo'ladi. Agar shaxsda ehtiyojlar qondirilmasligi psixologik zo'riqlashlarni yuzaga keltirsa, ehtiyojlarning qondirilishi shaxs o'zini mavjud qobiliyatlarni namoyon qiladi va yanada mustaqil, ijodkor shaxs sifatida shaxsiy o'sish yuzaga keladi.

Olimlar, insoniyat turining boshqa barcha a'zolari singari, turlar bo'yicha oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojlar va boshqalar bilan rag'batlantiriladi; xavfsizlik, himoya va g'amxo'rlik ehtiyojlari bilan; jamoaviylik va mehr-muhabbat munosabatlariga bo'lgan ehtiyojlar bilan; hurmat, mavqe va maqomga bo'lgan ehtiyojlar bilan, natijada o'zini hurmat qilish bilan; va individual shaxsning o'ziga xos va turlar bo'yicha imkoniyatlarini o'zini anglash yoki o'zini amalga oshirish zarurati bilan rag'batlantiriladi.[4] Abraham Maslou o'zining qarashlarini quyi ehtiyojlar qondirilmadan turib yuqori pog'ona ehtiyojlar qondirilmassligini ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi bilan inson xulq-atvorini va shaxsiy rivojlanishini tushuntiradi. Bu asosiy maqsadlar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ustunlik ierarxiyasida joylashtirilgan. Bu shuni anglatadiki, eng ustun maqsad ongni monopollashtiradi va organizmning turli qobiliyatlarini jalb qilishni tashkil qilishga moyil bo'ladi. Kamroq ustunlik qiladigan ehtiyojlar minimallashtiriladi hatto unutiladi yoki inkor etiladi. Ammo ehtiyoj yetarlicha qondirilganda, keyingi ustunlik qiladigan ("yuqori") ehtiyoj paydo bo'ladi, bu esa o'z navbatida ongli hayotga hukmronlik qiladi va xulq-atvorni tashkil etish markazi bo'lib xizmat qiladi, chunki qondirilgan ehtiyojlar faol motivatorlar emas. [5] Talabalarni egallashi lozim bo'lgan va o'z kasbiy vazifalarini bajarishda adaptatsiya jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarga to'liq tayyorlashning imkoni yo'q, xuddi talabani hayot qiyinchiliklariga to'liq tayyorlashning iloji bo'lmagani kabi. Hayotda ko'plab kutilmagan voqea va hodisalar bo'lishi mumkin. Shu sababdan, talabalarni tasodifiy muammolar va vaziyatlarga nisbatan improvizatsiya qilishga tayyorlash kerak. Ushbu jarayonlar professional motivatsiyasini maqsadli rivojlantirish maqsadiga erishish imkoni beradi.

Ushbu olimlar tahlilidan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, motivatsiya mazmunini shaxsning qadriyatlar tizimiga bog'liq jarayon ekanligini tushunishimiz mumkin. Shaxsdagi mavjud individual ehtiyojlar va qadriyatlar pedagog shaxsini rivojlantirishda muhim mezon vazifasini bajaradi. Motivatsiyani subyektiv jihatdan tahlil qilish kasbiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan mezonlarni egallashga, talabalarda kasbi talablariga nisbatan professionallik darajasini aniqlashtirishga yordam beradi.

Natijalar va muhokama

Ta'limda motivatsiyasi muammosi yuzasidan respublikamizda ham keng miqyosda ilmiy tadqiqot olib borayotgan olimlar mavjud. Bular sirasiga respublikamizda psixologiya fanining rivojlanishiga amaliy va nazariy hissasini qo'shib kelayotgan B. Shoumarov, M.G'. Davletshin, V.M. Karimova va boshqalar motivatsiya tushunchasini asosan ta'lim va tarbiya jarayonida o'quv

faoliyati motivlarining oʻrni, shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi hamda ichki va tashqi turtkilar jihatiga alohida eʼtibor qaratgan. Tadqiqotlar dastlab oʻquvchilarda bilim olishga boʻlgan qiziqishni oshirish, pedagogik texnologiyalar orqali motivatsiyani shakllantirish va shaxsning ehtiyojlarini tahliliy oʻrgangan. E.G.Gʻoziyev tadqiqotlarida motivatsiyani shaxsning yoʻnalganligi, faolligi va harakatlantiruvchi kuchlari sifatida yoritib bergan. Ayniqsa, oʻsmir oʻquvchilarning oʻquv faoliyatini boshqarish xususiyatlari oʻquv faoliyatini rejalashtirish, oʻz-oʻzini nazorat qilish, oʻz-oʻzini baholash jarayonlari baqida mulohaza yuritiladi. A.A.Fayzullayev ilmiy tadqiqotlarida shaxsning motivasion oʻz-oʻzini boshqarishning turli-tuman omillari ham koʻrib chiqilgan.

Oʻqituvchining kasbiy motivatsiyasi ichki va tashqi omillarga asoslanadi. Ichki omillar oʻqituvchining pedagogik faoliyatidan qoniqishi, zavqlanishi, taʼlim oluvchilar bilan ijobiy munosabat oʻrnatish, taʼlim berishda boshqalarga yetkazishdan rohatlanishi kabi jarayonlarga bogʻliq. Bu ichki omillar pedagogning kasbiy rivojlanishi va oʻzini oʻstirishiga katta taʼsir koʻrsatadi. Tashqi omillar esa oʻqituvchining oladigan maosh, ish muhiti, hamkasblar bilan munosabatlar, jamiyatdagi odamlarning oʻqituvchiga bergan bahosi, hurmat, obroʻ, ijtimoiy mavqe bilan bogʻliq ragʻbatlantirish vositalariga asoslanadi. Koʻpgina hollarda tashqi omillar oʻqituvchi motivatsiyasini maʼlum muddatgacha taʼsir qilishi mumkin, ammo ichki omillarga asoslangan motivatsiya uzoq davom etuvchi, barqaror motivatsion omil boʻladi.

Pedagoglarda kasbga oid motivatsiya shakllanishi bir necha omillarga bogʻliq:

- Kasbga boʻlgan muhabbat-jamiyatda oʻzini nufuzli kasb ekanligini his qilishi, undan zavqlanishi;
- Shaxsiy qiziqishlar-inson kasbiy rivojlanishga ishtiyoqini oshiradigan, kasbiy oʻsishi uchun yangi motivlarning paydo boʻlishiga xizmat qiluvchi xususiyatdir;
- Oʻziga boʻlgan ishonch-barqaror davom etadigan ichki motivatsiyani taʼminlovchi, stress va qiyinchiliklarga tez taslim boʻlmasligini ifodalovchi energiya manbai;
- Maqsad va orzular bilan uygʻunlashuv- maqsadlari asosida kasb tanlaydi bu maqsadlar uning pedagogik faoliyatidagi harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi;
- Ijodiy yondashuv-kreativ fikrlaydigan oʻqituvchi oʻz kasbiy bilimlarini takomillashtirishga, yangi pedagogik texnologiyalarni oʻrganish va ulardan samarali foydalanishga intiladi.

Aksariyat hollarda, oʻqituvchi faoliyatida uchraydigan emotsional va jismoniy yuklamalar ruhiy charchoqni (burnout) yuzaga keltirishi mumkin. Bu holat koʻpincha talabalik davrida irodaviy qiyinchiliklarga nisbatan adaptatsiya shakllanmaganligidan dalolat beradi. Xalqimizda shunday naql bor “Har yerni qilma orzu har yerda bor toshu tarozu!”. Darhaqiqat pedagog kasbida ham bir qancha qiyinchiliklar bor: kasbiy faoliyatdagi notoʻgʻri ustanovkalar, oʻziga past baho berish, akademik muvaffaqiyatsizliklar, emotsional zoʻriqish va charchoqlar, ortqicha pedagogik yuklamalar va hokazolar. Ushbu psixologik omillar yosh pedagoglarni kasbiy motivatsiyasini pasayishiga olib keladi. Uzoq muddatli motivatsiya pasayishi pedagoglarda professional frustratsiya va kasbiy dezorientatsiyani yuzga keltirishi mumkin.

Pedagogik faoliyat -yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan, bolalarga taʼlim-tarbiya berishi bilan shugʻullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. “Tegishli maʼlumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega boʻlgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shugʻullanish huquqiga ega” - deyiladi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunda.[6] Oʻqituvchilarda yuqori motivatsiyani shakllantirish oʻz kasbiy bilimlarini muntazam takomillashtirishga, yangi pedagogik innovatsiyalarni oʻrganishga va ulardan faoliyati davomida samarali foydalanishga intiladi. Hozirgi zamonaviy texnologiyalar davrida oliy oʻquv yurtida nafaqat bilimni egallash, balki kompyuter texnologiyalardan foydalana oladigan, xalqaro tajribalar asosida darslarni tashkil etadigan, har bir yosh oʻquvchiga individual yondashib taʼlim beradigan, oʻz kamchiliklarini

bartaraf etishga qodir kadrlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Past darajadagi motivatsiyaga ega shaxslar juda yengil topshiriqlarni yoki juda og'ir topshiriqlarni olishar ekan, buning sababi ular yechimga yengillik bilan erishish yoki umuman topshiriqning natijasini yechmaslikni o'ylaydilar. Yuqoridagi motivatsiyaga ega bo'lgan insonlar juda og'ir topshiriqlarni tanlashar ekan, buning sababi topshiriqning murakkabligidadir. Ushbu natijaning ijobiy hal qilinishi ularni yanada ruhlantirar ekan. [7] Avvalambor har bir pedagog kasbiy faoliyatni samarali olib borish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash davomida birmuncha qiyin vazifalarni bajara olish kun talabidir. Har qanday faoliyatda muvaffaqiyat nafaqat qobiliyat va bilimga, balki motivatsiyaga ham bog'liq (ishlash va yuqori natijaga erishish istagi). Motivatsiya va faollik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, shuncha ko'p omillar (ya'ni motivlar) odamni faollikka undaydi. Yuqori motivatsiyaga ega bo'lgan shaxslar ko'proq ishlaydi va o'z faoliyatida yuqori natijalarga erishadi. Motivatsiya faoliyatda muvaffaqiyatni ta'minlovchi eng muhim omillardan biri (qobiliyat, bilim, ko'nikma bilan birga).[8] Albatta pedagogda yuqori motivatsiyani shakllantirish uchun shaxsda tanlagan kasbiga nisbatan maqsadli harakatlar mavjudligini bilib olish darkor. Kasb tanlash tanlovida tashqi bosim yuqoriligi aksariyat hollarda motivatsiyaning sust bo'lishiga olib keladi. Talabadagi tanlagan kasbining anglanganlik darajasi, kasbining mohiyatini, dolzarbligini tushunishi esa motivatsiyaning sifatini belgilab beradi. Ko'pchilik hollarda talabalarda o'quv motivatsiyaning pastligi kasbiy motivatsiyaga salbiy ta'sir qiladi. Bu talabalarda o'ziga nisbatan ishonch yetishmaydi. O'ziga ishonmagan o'qituvchiga atrofdegilar ham akademik faoliyatiga shubha bilan qaraydi.

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy motivatsiyani oshirishga qaratilgan xorijiy tajribalar.

Xorijda ko'pgina rivojlangan davlatlarda pedagoglarda kasbiy motivatsiyani oshirishga qaratilgan muvaffaqiyatlari tajribalar olib borilmoqda. Masalan, Singapur ta'lim tizimi dunyodagi eng yosh va ayni vaqtda eng samarali tizimlardan biri hisoblanadi. Singapur ta'lim tizimida tanlagan yondashuvi yuqori natijalarga erishganligi bilan mashhur bo'lib, xalqaro PISA (Programme for International Student Assessment) va TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) reytinglarida muntazam ravishda jahon reytingida yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Singapur ta'lim tizimining bir qancha kuchli tomonlari mavjud. Jamiyatda pedagoglarni kuchli qo'llab-quvvatlashi va ta'limga bo'lgan ishonchi yuqori o'rinda turadi. Bundan tashqari o'qituvchilarni ruhlantirish uchun rag'batlantirish va e'tirof dasturlari yaratilgan. Alohida ta'kidlashimiz kerakki, Singapurda davlatning yirik xarajatlari (misol tariqasida 2003-2017- yillarda 109 million funt sterling ajratilgan) pedagogik tadqiqotlarga va ta'limni boshqarish, o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan. Finlandiya ta'lim tizimida pedagoglar motivatsiyasini oshirish uchun nafaqat moddiy rag'batlantirish, balki ularga bo'sh vaqtda o'z ustida ishlash uchun professional erkinlik beriladi. Finlandiyada pedagoglar orasida raqobat emas, balki pedagogik hamkorlik, tajriba almashishga alohida urg'u beriladi. Pedagoglarni saralab olish muhim ahamiyatga ega va bu jamiyatda o'qituvchilarning yuksak maqomni ta'minlash eng muhim omildir. Yaponiya ta'limida o'qituvchilar motivatsiyasini oshirish tizimida o'ziga xos "ustoz-shogird" an'analari, jamoaviy mas'uliyat va ijtimoiy nufuzga asoslangan. Finlyandiya bilan farqli o'laroq, o'ziga xos jihat pedagogning muntazam kasbiy o'sishi va jamiyat oldidagi mas'uliyatiga qaratiladi. 2025-2026 yillarga kelib, Yaponiya ta'lim tizimida o'qituvchilarni rag'batlantirish maqsadida bir qancha yo'nalishlarni amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Yaponiyada tajriba almashish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagoglar darslarni hamkasblari bilan hamkorlikda rejalashtiriladi, bu o'zaro dars tahlillari asosida darslarni tashkil etadi. Yaponiyada kasbiy mahoratni oshirish muhim ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu pedagogning pedagogik kamchiliklarini bartaraf etib, jamoaviy ishlash imkoniyatiga ega bo'lib kasbiy motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Yaponiyada "o'qituvchi" so'zi (sensei) yuksak hurmat ramzini ifodalaydi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimining samaradorlik ko'rsatkichi va jamiyat ravnaqi ko'p jihatdan bo'lajak pedagoglarning kasbiy motivatsiyasi darajasiga bog'liqdir. Kasbiy motivatsiya o'qituvchining o'z kasbini chuqur anglashiga, kasbga doir bilim va ko'nikmalarni puxta egallashiga hamda professional faoliyatda uchraydigan qiyinchiliklarni yengib o'tishiga xizmat qiluvchi muhim psixologik omil sifatida xizmat qiladi. Avvalambor, talabalarda ichki motivatsiyaning shakllanishi kasbga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi va pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi. Shu sababli ta'lim jarayonida talabalarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish, kasbiy identifikatsiyani oshirishga yordam berish hamda to'g'ri motivatsion muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa kelajakda yuqori malakali, kreativ fikrlaydigan va jamiyat rivojiga munosib hissa qo'sha oladigan pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Kasbiy motivatsiyaning barqaror davom etishi asosan ta'lim muhitidagi qo'llab-quvvatlovchi muhitga ham bog'liq jarayon bo'lib, kasbiy kompetensiyaga oshirishga yordam beradi. Pedagogik oliygohlarda asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishni baholashda talabalar kasbiy ta'lim darajasiga qo'yiladigan talablarga javob berish bilan birga, asosiy ish funksiyalarini o'zlashtirishdagi mavjud kasbiy qiyinchiliklarni tushunish va ularni amaliy jihatdan yengib o'tishga ham o'rgatish zarur.

Takliflar

Kasbiy motivatsiyani rivojlantirishga qo'yiladigan psixologik shartlar quyidagilar:

1. Ijobiy psixologik muhit yaratish;
2. Ichki motivatsiyani shakllantirish;
3. Kasbiy o'sish imkoniyatlarini yaratish;
4. Rag'batlantirish va e'tirof etish;
5. Mustaqillik va erkinlik berish;
6. O'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirish pedagoglarda refleksiya, o'z faoliyatini tahlil qilish va shaxsiy rivojlanishga intilish ko'nikmalarini shakllantirish kasbiy motivatsiyaning barqaror bo'lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son - (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son) 9-bet
2. Додонов Б. И. Структура и динамика мотивов деятельности / Б. И. Додонов // Вопросы психологии. — 1984. — № 4. — с. 126-130
3. Jo'rayeva S.N., Raxmonova N.A., Xayitova Z.M. «Профессиональная психология» - Darslik T. TGPU. 2024
4. Maslow, A. (1970). Motivatsiya va shaxsiyat. Nyu-York: Harper and Row. 2-bet
5. A Theory of Human Motivation A. H. Maslow (1943) 395-p.
6. R.Mavlonova, D.Abdurahimova "Pedagogik mahorat" O'quv qo'llanma.Toshkent-2009 5-bet
7. Devid G. Mayers. Psixologiya. Minsk.2008, 520-bet
8. Sh.Kamolova, M.K.Qodirova, N.A.Axmedova, Y. A. Amonxonova, M.N. Vaxobova. Shaxs psixologiyasi. Darslik. Toshkent-2015.300-bet